

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

CHOLG‘U IJROCHILIGI
FANINING DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soxa
Ta’lim sohasi:	150 000 - San’at
Ta’lim yo‘nalishi (cholg‘u ijrochiligi))	5111600 – Ashula va raqs 5111000 – Xalq ijodiyoti

Fan/modul kodi XCHI1818		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-8	ECTS - Kreditlar 18	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalq cholg'ularida ijrochilik	240		300	540
2	Fanning mazmuni “Cholg‘u ijrochiligi” fanining mazkur ta’lim yo‘nalishda mazmuni shundan iboratki, bo‘lajak ashula va raqs yo‘nalishi dars jarayonida o‘qitishning zarur jarayonlardan biri Har bir yosh sozanda-ijrochini kamolotga etkazishda, musiqiy asarlarning g‘oyaviy va badiiy tarzda chuqur o‘zlashtirishi, o‘z ijrochilik mahoratini va san’atini jamoaviy ijrochilikka uyg‘unlashtirib va boshqa cholg‘u ijrochilarni eshitish va ularga kerak bo‘lsa yakkanavozlik sifatida, shuningdek ansamblning boshqa a’zolari uchun jo‘rnavozlik vazifasini bajara bilishi umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Fanning vazifasi - Fanning vazifasi talabani kelajakda bevosita sozanda sifatida faoliyat yuritishi uchun tayyorlash, talabalarda musiqaga, xususan, cholg‘usiga nisbatan muhabbat tuyg‘ulari, badiiy-estetik didni o‘stirish, ma’naviy yuksaltirishdan iborat. Ma’lumki, “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasida quyidagi milliy cholg‘ular (g‘ijjak, nay, qo‘shnay, chang, qonun, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, ud, dutor, doira) bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari olib borilishi tufayli turli xildagi cholg‘ularda talabalarning ijrochi sifatida tajribasi ma’lum darajada tarkib topadi. Ular ijrochilikda nafaqat mukammal ko‘nikmalarga balki, mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘z tasavvurlariga ega bo‘ladilar. Bastakorlarning mumtoz musiqa asosida bastalagan asarlaridan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy talablar asosida talqin etishni o‘rganish hamda sahna madaniyati ko‘nikma malakalarini mukammal o‘zlashtirishga zamin bo‘ladi. Bu cholg‘u -ijrochilarning umumiy musiqiy-nazariy va amaliy bilim doirasini yanada kengayishiga katta hissa qo‘shadi. Talaba lar uchun talablar “Cholg‘u ijrochiligi” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim: O‘zbek xalq cholg‘ulari va boshqa millat cholg‘ulari, o‘zbek xalq cholg‘ulari va boshqa millat cholg‘ularining ijro uslublari, noyob cholg‘ularda ijrochilik mahoratini egallash bilimining nazariy va amaliy bilishi kerak. Musiqa cholg‘usini mustaqil ravishda sozlash, gamma va etyudlar, barmoqni yuritish mashqlari, milliy cholg‘u ijrochiligi uchun zarur nola va qochirimlarni hosil qilish, kuylarni doira usuliga moslab chalish, o‘z cholg‘usini toza va ozoda saqlash, cholg‘uda uyga berilgan vazifalarni mustaqil tayyorlash, ritmni his etish, dinamika, frazirovkani to‘g‘ri tashkil etish, shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog‘lash yo‘llari, etyud, gamma, mashqlar ijrosi, konsert ijrochiligi				

repertuarini shakllantirish, xalq cholg'ulari uchun yozilgan klassik repertuar, o'zbek va qardosh xalqlar kompozitorlari asarlari, O'zbekiston kompozitorlari ijodidan namunalar ijro etish, asar nota matni ustida mustaqil ishlash, muallif ko'rsatmalariga og'ishmay amal qilish, kuylarga milliy jilo berish, o'z ijrosini boshqalr ijrosiga moslashtirish, kuy ijrosi oldidan barmoqlarni qizitish uchun turli mashqlarni tanlay bilish, musiqa cholg'usini erkin tutish, sahna madaniyatiga rioya qilish, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llay bilish, cholg'u ijrochiligiga mo'ljallangan darslik, qo'llanma va to'plamlardan foydalanish, o'z kamchiliklarini sezgan holda uni bartaraf etish, konsert dasturlarini tayyorlash, kundalik mashqlarni izchil davom ettirish, barmoq texnikasini rivojlantiruvchi mashqlardan to'g'ri foydalanish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi kerak.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

Fanning o'quv dasturi **Harvard University (Garvard Universiteti)**ning **"Department of music"** (musiqa bo'limi) tarkibida o'qitiladigan fanlardan biri **"Performance tutorials"** (yakka ijro) fani dasturi asosida takomillashtirilgan. **"Harvard University"** Buyuk Britaniyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib u yerda musiqaga oid o'qitiladigan asosiy yo'nalishlardan biri **Performance Practice – (cholg'u va vokal ijrosi, ansambl mashg'ulotlari)**. Musiqa ixtisosligi bakalavriat (**Concentration in music**) uchun quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- Nazariy analitik kurslar,
- tarix va madaniyat,
- ijodiy mashg'ulotlar,
- ansambl mashg'ulotlari.

II. Asosy qism (yakka masjg'ulotlar)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Tovush hosil qilish va ohangdoshlik.

– Bunda cholg'ularda dastlabki ijro holati (pastanovka) – o'zbek xalq cholg'ularida ijro holati har xil bo'ladi. Nay, qo'shnay, chang, qonun, qashqar rubobi, afg'on rubobi, dutor, tanbur, doira, g'ijjak, ud cholg'ularining yasallishidan kelib chiqqan holda, ijro holati shakllanadi. Har bir cholg'uda tovush hosil qilishda shtrixlar mavjud. Shtrixlar tovushlarni to'g'ri ijro qilishga, intonatsiyani sofliqiga erishishga, ijroni soddalashtirish, ya'ni ijro texnikasini oshirishga hamda ohangdoshlikka erishishga xizmat qiladi.

2- mavzu. Asar matnini to'g'ri talqin etish.

– Tanlangan yangi asarni ijro etish nota matnini tahlil etib, tegishli cholg'uda "o'qish" (chitka), ya'ni chalib ko'rishdan boshlanadi. Nota matnining to'g'ri talqin etilishi uchun talabaning nazariy bilimlari va ijro malakalari bo'lishi shart. Nota matnini dastlabki chalish davrlarida imkoni boricha sanab, sekin tempda boshlash katta ahamiyatga ega. Chunki, noto'g'ri talqin etilgan nota yoki jumla talaba tomonidan o'zlashtirilgandan keyin uni to'g'rilash ancha qiyin kechishi

mumkin. Nota matnining ma'lum qismi talaba tomonidan yetarli darajada o'zlashtirib bo'lingandan keyin asar tempini tezlashtirish mumkin. Asarning qiyinroq bo'laklarini o'zlashtirish davrida o'qituvchi talabaga mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Bu mashqlar talabaning ijro texnikasi o'sishi uchun xizmat qiladi.

3- mavzu. Asar mazmuniga mos nola va qochirimlardan foydalanish.

- O'zbek xalq kuylari, bastakorlar asarlari va kompozitorlarning milliy ruxda yozilgan asarlari talqinida nota matnida yozilganlardan boshqa nola, qochirim singari bezaklar ham ishlatiladi. Qochirim tushunchasi ostida bitta nota o'rniga yonma yon turgan notalardan foydalangan holda ijroni boyitish tushunilsa, nola tushunchasi nota matnidagi notani ijro etish davrida undan sirg'alib pasrtoqqa yoki yuqoriroqqa siljishi tushuniladi. Ayrim asarlarda milliy nola qochirimlarni turli qo'shimcha belgilar bilan ifodalash amaliyoti ham uchraydi. Nota matnini milliy qochirimlar bilan boyitilayotganda asar ruxiga mos nola qochirimlar ishlatilishi kerak. Bunday milliy bezaklarni o'zlashtirishda talabalarning milliy kuylarni ko'p eshitishi va o'qituvchining o'z ushbu bezaklarni chalib ko'rsatib berishi yordam beradi.

4- mavzu. Milliy cholg'uda ijro etish ko'nikmasi.

- Milliy cholg'uda ijro etish ko'nikmasini hosil qilish uchun talaba auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari mustaqil ta'lim davrida o'z ustida ko'p ishlashi kerak. Ayniqsa o'zlashtirish murakkab bo'lgan nay, qo'shnay, g'ijjak, tanbur, ud cholg'ularida talaba o'zi istagan tovushni hosil qilishi, ijro texnikasining yuqori bo'lishiga erishishi uchun ko'p mehnat talab etiladi. Ijro texnikasining o'sishida gammalar, turli mashqlarni chalish yordam bersa, nola qochirimlarni maromiga yetkazib ijro etish o'qituvchining amaliy ko'rsatmalari va milliy kuylarni ko'p eshitishga asoslangan holda tinimsiz mehnat qilish talab etiladi.

5- mavzu. Talabaning ijrochilik qobiliyati, talaba iste'dodidani rivojlantirish.

- Talabalarning musiqiy qobiliyati turlicha bo'lganligi bois ularning ijro malakalarini o'stirish jarayonida har bitta talabag individual yondoshuv zarur. Talabaning shaxsiy qobiliyatidan foydalanishda unga rejalashtiriladigan asarlarni tanlashda unumli foydalanish mumkin. Notani varaqdan o'qish qobiliyati yuqori bo'lgan talaba bitta asarni bitta darsda to'g'ri o'qib va notaga qarab to'xtamasdan ijro eta olsa, boshqa talabaga 3 ta dars ham kamlik qilishi mumkin. Ammo, ikkinchi talabaning ijro texnikasi yuqori bo'lib, birinchi talaba 3 ta darsda ham yetisha olmayotgan tempda bitta darsdan keyin erishishi mumkin. Bundan hollarda talabaning qobiliyatidan foydalangan holda asarlar tanlanib, har ikki talabaning birgalik mustaqil dars qilishiga erishilsa, ular bir-birining kamchiligini to'ldirgan holda rivojlana boradi.

6- mavzu. Ritmni his etish, dinamika, frazirovka.

– An’anaviy ijroda ritm deganda asosan doira usuli tushuniladi. Dastlab talabalarga “zarb-ul qadim” doira usulida ijro etiladigan ikki hissali oddiy o’lchovdagi asarlar beriladi. Aslida, eng oddiy, ayni vaqtda eng murakkab usul “zarb-ul qadim”dir. Bunday asarlarni o’rgatishda talabaga doira zarblari va qo’shiq pardalari, so’z bo’g’inlari, zarb bilan tushadigan qo’shiqdagi qattiq va yumshoq tovushlarning xususiyatlari tushuntirib boriladi. Bu jarayonda nafasni to’g’ri olish va undan tejamkorlik bilan foydalanish qoidalari mashg’ulotlarning asosiy maqsadiga aylantirilishi kerak.

7- mavzu. Ijroni jo’rnavoz bilan uyg’unlantirish.

- cholg’u ijrochisi doira jo’rnavozligida hamoxang tarzda kuy ijro etishi va uyg’unlikka erishishi muhimdir. **Ijro** – bu asarning bajarilishi, masalan, qo’shiq aytish, cholg’u chalish, yoki sahnada rol o’ynash. **Jo’rnavoz** – bu asarga jo’r bo’lib turadigan musiqa yoki ohangdorlik, masalan, orqa fondagi musiqa, orkestr, yoki ritmik ohang. Ijrochining harakatlari, ovozi yoki ifodasi **jo’rnavoz (orqa ohang)** bilan birgalikda **mos va uyg’un** bo’lishi kerak, deganidir.

Bu san’atda muhim, chunki notog’ri uyg’unlik – musiqa bilan ijroning nomuvofiqligi – tomoshabinga salbiy ta’sir qiladi.

8- mavzu. Shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog’lash yo’llari.

- Cholg’u kuyi nota matnida odatda har doim ham ijro uchun zarur bo’lgan shtrixlari ko’rsatilmaydi. Shuning uchun har bitta asar ijrosi davrida o’qituvchi ma’lum notalarni tegishli shtrixda (masalan yakka zarb bilan yoki tremolo, qaysi notani pastga yoki yuqoriga chalish) ijro etish lozimligi bo’yicha vazifa qo’yadi va talaba shu shtrixlarga amal qilishini talab qiladi. Agar talaba o’qituvchi tomonidan qo’yilgan vazifani to’liq bajara olmasa, o’qituvchi notalar ustiga tegishli shtrixlarni yozib qo’yishi kerak bo’ladi. Cholg’u ijrochiligida pozitsiya (chap qo’lning holatlari)ni to’g’ri tanlash ham talab etiladi. Bu esa ijro texnikasidan unumli foydalanishni ta’minlaydi.

9- mavzu. Etyud, gamma va mashqlar ijrosi.

– Ijro texnikasini o’stirishda gamma, etyud va mashqlarning ahamiyati katta. Talabani cholg’uni qo’lga olgan ondan boshlab gamma chalib qo’llariniqizdirishga o’rgatish kerak. Bunda, talaba ijro etishi lozim bo’lgan kuy tonalligidagi gammani chalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda mashqlar o’rganilayotgan asardagi murakkab joylarni o’zlashtirishga xizmat qiladi va shu bois mashqlar o’qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. O’quvchining ijro mahoratini shakllantirish, teznikasini o’stirish maqsadida doimiy ravishda asosiy asarlarga qo’shimcha ravishda etyudlar tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan etyudlar talabaning ijrodagi zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

10- mavzu. Konsert ijrochiligi repertuarini shakllantirish.

– Odatda tayyor bo‘lgan asarlardan maxsus dastur tuzilib, ijodiy va hisobot konsertlariga tayyorlab qo‘yiladi. Bunda asarning qanday tartibda ijro etilishi, shuningdek sahna madaniyatini tarbiyalash, doira cholg‘usi bilan xamkorlikka e‘tiborni qaratish va muallif ko‘rsatmalariga qat‘iy rioya qilish, tartib-intizom masalalariga alohida e‘tibor qaratish muhim. Repertuarni shakllantirishda dasturga kiritiladigan asarlarning rang-barang bo‘lishi, ularning temp, xarakter, usul jihatidan farqlanishiga, shuningdek repertarda faqat bir yo‘nalishdagi asarlardan foydalanmaslik masalalari ham muhim.

11- mavzu. Sodda milliy musiqalari ijrochiligi.

– Mashg‘ulotlarda sodda kuylardan foydalanish ko‘p hollarda mumtoz xalq kuylari mohiyatini talabaga tushintirishda yaxshi dastur-ul amal bo‘la oladi. Bunday kuylarni talabaga o‘rgatish unda tez va qisqa ijro malakalarini egallash aniq va shiddat bilan ijro qilish kabi ijobiy holatlarni paydo qiladi. Milliy musiqalarni o‘rgatishni yana bir xususiyati shundaki bu jarayonda talabalarda voqelikni tez anglash jarayoni tezlashadi.

12- mavzu. An’anaviy bastakorlar ijodidan namunalar ijro etish.

-**An’anaviy bastakorlar ijodidan namunalar ijro etish** da avvalo o‘rgatilayotga asarning qanday manbadan yaratilganligiga e‘tibor berish kerak. Agar bastakorlik namunasi maqom yo‘lidagi ohanglarda yaratilgan bo‘lsa, uni o‘rganish jarayonida mashg‘ulotlarda talabaga asarning qaysi voxa professional ijrochiligiga xos ekanligi tushintiriladi. O‘sha ohanglar aks etgan musiqa ijrochiligi bo‘yicha keng foydalanish kerak. Bastakorlik namunalarini o‘rgatish jarayonida asar muallifining shakllangan muhiti va ijodiga dahildor boshqa holatlarni nazar va amaliy jihatdan talabaga tushintirib borish talab etiladi.

-

13- mavzu. Mumtoz kuylar, maqom cholg‘u yo‘llaridan namunalarni ijro etish.

-Talabalarga beriladigan ijroviy dasturning salmoqli qismi mumtoz kuylar bo‘lib, “Shashmaqom”ning mushkulot bo‘limidan esa tasnif, gardunlarni tavsiyaya etiladi. Har bir asarni talabaning musiqa cholg‘u ijrochilik mahoratidan, uning egallagan bilimidan va imkoniyatidan kelgan holda tavsiya etiladi. Chunki, maqom asarlarini ijro qilish murakkab hisoblanadi. Mumtoz va maqomning mushkulot qismidan o‘rgatish jarayonida talabaga undagi badiiy va musiqiy matnni keng tushintirish lozim.

14- mavzu. O‘zbek va qardosh xalqlar bastakorlari ijodi.

– O‘zbek va qardosh xalqlar bastakorlari ijodi mashg‘ulotlarida avvalo tanlangan asarning qaysi voxaga tegishli ekanligiga e‘tibor beriladi. Toshkent-Farg‘ona ijroligi. Buxoro-Xorazm maqom sho‘balaridagi asarlarni ijro etish. O‘zbek va qardosh xalqlarining xalqona yo‘lida ijro qilingan asarlar o‘rgatiladi.

Bunda asosan musiqiy ijro yo'llariga ahamiyat beriladi. Har bir musiqiy bezaklarni bir-biridan farqli nola, qochirimlar, bajara olishi lozim bo'ladi. Asar mualliflarining ijodi bilan tanishadi.

15- mavzu. O'zbekiston bastakorlari ijodidan namunalaridan ijro.

– milliy cholg'ularda o'zbek kompozitorlarining tempi jihatidan tez bo'lgan asarlarni ijrochilikda mohirlikni egallashga uchun ijro etadi. Bunda asosan o'zbek kompozitorlarining o'zbek xalq kuylarini qayta milliy cholg'ular uchun moslashtirgan asarlarini ijro qiladi. Shuningdek, barmonqlar joylashuvi, pozitsiya va shtrixlar o'rganiladi.

*Ixtisoslik fanlari xususiyatidan kelib chiqib tavsiya etilgan mavzular barcha kurslarga taalluqli.

III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- Darslik o'quv qo'llanma maxsus yoki ilmiy adabiyotlar(monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

- Yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;

- Talabaning ilmiy tekshirish(ijodiy) ishlarini (TITI)bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;

- Faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari(ish bilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokiumlar, va b)

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasida mavjud kutubxona, fonoteka, videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari,teleradio kompaniya kanallari, va konsert zallardan unumli foydalanishdan bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish xam nazarda tutiladi.

IV Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular;

1. Cholg'u ijrochiligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
2. Ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va shakllantirish
3. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish
4. Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash
5. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish
6. Notadan ravon o'qish malakasi ustida ishlash
7. Ijrochilik ko'nikmalarini mukammallashtirish
8. Sahnaviy chiqish va maxsus konsert ko'nikmalarini rivojlantirish

	*Ixtisoslik fanlari xususiyatidan kelib chiqib tavsiya etilgan mavzular barcha kurslarga taalluqli.
3	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - professional konsert ijrochilari; - orkestr (ansambl) artistlari va ularning sahnadagi chiqishlari; - konsert-ijrochilik ko'nikmalari; - - musiqaning shakl tahlilini ochib beruvchi nazariy asoslar haqida tasavvurga ega bo'lish; - ijrochini repertuariga kiritilgan dasturni o'zlashtirishni; - notadan o'qish texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirishni; - turli xil janrdagi asarlarni ijrochilik tahlilini; - o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakldagi xilma-xil janrdagi musiqiy asarlarni yuqori darajada mohirona ijro etishni bilishi va ulardan foydalana olishi; - tanlangan musiqa cholg'usida chalish ko'nikmalarini rivojlantirish; mutaxassislik bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash; ijrochilik mahoratini takomillashtirish; - sahnada ijro etish; - yuksak ijrochilikka oid texnika san'atini mukammal o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Ijro dasturlari; • Interfaol keys-stadilar; • Akademik kontsertlar • Kollokvium (tezkor savol-javoblar)
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratda ijro dasturini topshirish.

6.

Asosiy adabiyotlar:

1. Nazirov Q. "Xalq cholg'ularida ijrochilik" (G'ijak) "Musiqqa" nashriyoti-T., 2021
2. A. G'ochbakarov "Xalq cholg'ularida ijrochilik*" (rubob prima) T., "Fan va texnologiya" nashriyoti 2019
3. X.Beknazarov Maxsus cholg'u, Toshkent: Navro`z
4. Toshpo'latova I.S. An'anaviy cholg'u ijrochiligi (dutor), Musiqqa, Toshkent, 2017
5. R.Xodjayeva, Xalq cholg'ularida ijrochilik (dutor), Toshkent, Darslik, "Musiqqa", 2020
6. Yunusov U. "Xalq cholg'ularida ijrochilik" - T., "Musiqqa" nashriyoti 2021
7. V.Babayev. "Maxsus cholg'u"-Q., "Art press" 2023
8. K.Shermatov. "Maxsus cholg'u"(chang)- T., "Turon iqbol"2019
9. T.Xalilov"Maxsus cholg'u"(qashqar rubobi)-Q., "Art press" 2023
10. B.Mirpayozov. "Xalq cholg'ulari"-T., "Musiqqa nashriyoti"2019
11. Dilshodjon Meliboyev Xalq cholg'ularida ijrochilik Afg'on rubobi. 2021
12. Ismailova M. Maxsus cholg'u (dutor sinfi). O`quv qo`llanma. Qo`qon:2023
13. O. Gochbakarov "Prima rubobi" O`quv qo`llanma, T. 2015 y

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. "O'zbekiston -2030 yilgacha rivojlanish strategiyasi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Erkinvafaravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil
1. Nurmatov H. Qashqar rubobi. Toshkent: O'quv qo'llanma, 2003 y.
2. Odilov A. "Chang" Toshkent: O'quv qo'llanma, 2002 y.
3. Lutfullayev A. "O'zbekiston musiqa san'ati ustalari" R. Ne'matov Toshkent: O'quv qo'llanma, 2003 y.
4. Y. Rajabiy "O'zbek maqomlari shashmaqom" T., 2007 y.
5. Muxamedova G. "Kuyla dilkash dutorim" Toshkent: O'quv qo'llanma, 1998 y.

	6. Yusupova A. “Maxsus cholg‘u”. Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2010 y. Axborot manbalari 1. www.alishernavoiiy.uz 2. www.literature.uz 3. www.kutubxona.uz 4. https://music.fas.harvard.edu
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: V.Boboyev — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b. M.M.Kurbanova — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b.
9.	Taqrizchilar: M.M.Ismailova — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasi dotsent T.Xalilov — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b.